

**Satib-Aldiyev Azim Abdu-Shakirovich,**  
*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,*  
*O'R QK Akademiyasi harbiy ta'lim muassasalari pedagog*  
*kadrlarining malakasini oshirish Markazi dotsenti*

*Ushbu maqolada pedagog kreativligining mazmuni, harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar kasbiy tayyorgarligi samaradorligini oshirishda o'qituvchilar kreativlik potensialining ahamiyati hamda tinglovchi (kursant)larning kreativlik sifatlarini shakllantirish yo'llari to'g'risida tushuncha berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kreativlik, kreativ pedagogika, pedagogik kreativlik, pedagogning kreativlik potensiali, kreativlik mezonlari.*

В статье раскрываются содержание креативности педагога, значение креативного потенциала преподавателя в повышении эффективности профессиональной подготовки обучаемых в военно-образовательных учреждениях, а также пути формирования креативных качеств слушателей (курсантов).

**Ключевые слова:** *креативность, креативная педагогика, педагогическая креативность, креативный потенциал педагога, критерии креативности.*

*This article reveals the content of the teacher's creativity, the importance of the teacher's creative potential in improving the effectiveness of the professional training of students in military educational institutions, as well as the ways to form the creative qualities of post-graduate students (cadets).*

**Key words:** *creativity, creative pedagogy, pedagogical creativity, creativity potential of the pedagogue, creativity criteria.*

Bugungi kundagi turmush tarzi, shiddatli hayot oqimi, turli sohalardagi innovatsion o'zgarishlar, axborot oqimining kengligi kabi zamonaviy tendensiyalar turli soha mutaxassislaridan olinayotgan ma'lumotlar yuzasidan tez fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va tezkor qaror qilishni talab etmoqda. Bu esa o'z navbatida odamlarda ma'lum bir sifatlarning mavjudligini va rivojlanganligini taqozo qiladi.

Zamonaviy o'qituvchi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etuvchi bunday sifatlardan biri kreativlidir.

Kreativlik (lotincha creation – yaratish) insonning tafakkurida, hissiyotlarida, muloqotida, ma'lum bir faoliyat turida va uning natijalarida namoyon bo'ladigan ijodiy imkoniyatlari (qobiliyatları) bo'lib, shaxsni to'laligicha yoki uning ayrim jihatlarini tavsiflaydi. Pedagogikaga oid ilmiy, o'quv va metodik adabiyotlarda o'qituvchining kreativligi, unga xos sifatlarning mazmunini bayon etishga mutaxassislardan tomonidan turlicha munosabatlar ko'rinishiga qaramasdan asosan ijodiy faoliyat bilan bog'lab tushuntiriladi.

“Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” nomli qo’llanmada “kreativlik – individning yangi g’oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati” deya ta’riflanadi [4, 72-b.]. Ushbu qo’llanmada kreativlik shaxsning tafakkurida, muloqotida, histuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘lishi hamda iqtidorining muhim omili sifatida aks etishi, uning zehni o’tkirligini belgilab berishi ko’rsatilgan. Mualliflarning fikricha, kreativlik sifatlari quyidagilardan iborat bo‘ladi: ijodiy yo‘nalganlik; mantiqiy fikrlay olish; eruditsiya (bilag‘onlik); boy tasavvur; ijodiy ta’sirchanlik va tashabbuskorlik; o‘z ijodkorligini to‘la-to‘kis namoyish etish; refleksiya qobiliyati; hissiyotga boylik; mavjud tajriba va bilimlar asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasi [4, 73-b.]. “Kreativ pedagogika asoslari” moduli bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv-uslubiy majmuada shaxs kreativligining yuqorida sanab o‘tilgan sifatlari ro‘yxatiga innovatsion qobiliyatga egalik, tavakkal qila olish qobiliyati, tafakkur tezligiga egalik, ichki sezgining rivojlanganligi, o‘ziga xos (orginal) g’oyalarni ilgari sura olish qobiliyati, yuksak badiiy qadriyatlarga egalik sifatlari qo’shilgan [2, 38-b.]. Ko‘rinib turibdiki, shaxsning kreativligi ko‘proq ijodkorlik, tafakkurning kengligi, ma’lum bir qolipga tushib qolinmaslik bilan ifodalanadi.

Zamonaviy pedagogik fan va amaliyotda “kreativ pedagogika”, “pedagogik kreativlik”, “pedagogning kreativlik potensiali” kabi tushunchalar keng qo’llanilmoqda.

“Kreativ pedagogika”ning asoslarini pedagogika tarixi, umumiyligi va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o‘qitish metodikasi, ta’lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g’oyalari tashkil etib, mutaxassis, shu jumladan, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratishga xizmat qilishi bilan birga quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) o‘qituvchilar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirayotgan va ularni o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e’tiborlarini fan asoslarini chuqurroq o‘rganishga jalgan etish;

2) o‘qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsija etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish. [2, 22-23-b.].

Mazkur fikrlardan kelib chiqib, kreativ pedagogikaning quyidagi maqsadlari ko’rsatilgan:

1) pedagogda ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy, kreativ yondashish, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan qobiliyat va malakalarini rivojlantirish;

2) talabalarda o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga ijobiy, mustaqil yondashish, o‘quv topshiriqlarini bajarishda yangi, ijodiy, kreativ g’oyalarni ilgari surish qobiliyati va ko‘nikmalarini shakllantirish hamda bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida kasbiy tayyorlash asoslarini yoritadigan, shaxs kreativligining turli yosh bosqichlari

xususiyatlariiga muvofiq rivojlanishi masalalarini o‘rganishdan, umumlashtirib aytganda, shaxsni kreativ o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishdan iborat [2, 24-b.].

Keyingi yillarda pedagogika fani va amaliyotga o‘qituvchilar faoliyatidagi ijodiy yondashuvlarning ahamiyatini tavsiflovchi “pedagogik kreativlik”ka ahamiyat berilmoqda. Pedagogik kreativlik – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayoni samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati [2, 22-b; 4, 75-b.].

Pedagogning kreativlik potensiali uning umumiyligi xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potensial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatları, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo‘ladi. Kreativ potensial bilish jarayoniga yo‘naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog‘liq.

Pedagogning kreativ potensiali an’anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish;
- ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish;
- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o‘ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish;
- zakovatli bo‘lish [2, 47-b.].

Pedagogning kreativlik potensiali ko‘p darajali jarayon va u quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- muammoli xarakterga egalik;
- ijodiy yo‘naltirilganlik;
- imkoniyatlarni oshirib borish;
- individuallikka erishish;
- kreativlikning yorqin namoyon bo‘lishi;
- bir butunlik, izchillik va tizimlilik;
- shaxsning individual xususiyatlari va hayotiy faoliyatda orttirgan sifatlarining o‘zaro uyg‘unligi [4, 79-b.].

Pedagogning kreativlik potensiali quyidagi tarkibiy asoslarni o‘z ichiga oladi:

- maqsadli-motivli yondashuv (ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko‘zga tashlanadi);

- mazmunli yondashuv (o‘zida pedagogik, psixologik, maxsus va innovatsion xarakterdagи bilim, ko‘nikma va malakalarni aks ettiradi);
- tezkor-faoliyatli yondashuv (o‘zida ma’lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek, amaliy (maxsus, texnik, texnologik) faoliyat usullarini ifodalaydi);
- refleksiv-baholash (bunda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o‘z-o‘zini tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholash ko‘zga tashlanadi). [4, 78-b.]

Kreativlik potensialiga ega pedagog o‘zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- masalaning qo‘yilishini tahlil qila olish;
- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo‘llash;
- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to‘g‘riligini asoslash va qayta tekshirish;
- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish [4, 78-b].

Sanab o‘tilgan sifat va tamoyillarga ijodkorlik mezonlari sifatida qaragan holda pedagoglar kreativ potensialining uch darajasi aniqlangan:

1. Yuqori: Muntazam ravishda turli tashabbuslarni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligini izchil namoyib etib boradi, kreativ jihatdan o‘ta faol, izlanuvchan.
2. O‘rta: Ba’zan u yoki bu tashabbusni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligi muntazam bo‘lmasa-da, ammo namoyon bo‘ladi, kreativ jihatdan bir qadar faol, izlanuvchan bo‘lishga intiladi.
3. Past: Garchi u yetarlicha asoslanmagan bo‘lsa-da, tashabbusni ilgari surishga intiladi, kreativ qobiliyati yetarlicha namoyon bo‘lmaydi, izlanuvchan bo‘lishga intilmaydi [4, 80-b.].

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Алимардонов З.Ш. Олий ҳарбий таълим муассасаларида бўлажак офицерларнинг касбий компетентлигини такомиллаштириш: пед.ф.ф.д. (PhD) дисс. автореферати: 13.00.01 / З.Ш. Алимардонов; Самарқанд Давлат университети. – Самарқанд, 2019. – 53 бет.
2. Креатив педагогика асослари: ўқув-услубий мажмua. – Тошкент, 2016. – 144 бет.

3. Нигматов Р.О. Непрерывное образование офицерских кадров как вектор совершенствования профессиональных компетенций / Р.О. Нигматов // Ҳарбий таълим ва фанда инновациялар. – 2018. 1-сон. – 78-82-бетлар.

4 .Педагогик компетентлик ва креативлик асослари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Тошкент, 2015. – 120 бет.